"QISASI RABG`UZIY" ASARIDA ONALAR OBRAZINING BADIIY-ESTETIK TALQINLARI

Shomurodova Dilorom Husanmurotovna
1-kurs tayanch doktorant, Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Ona hayot baxsh etuvchi ayol zotining ifodasi hamda insonning ichki dunyosi, xotirasi va tuyg'ulari bilan bog'liq chuqur ma'nolarni o'z ichiga olgan timsoldir. Har bir nson tug`ilib, voyaga yetishida onalarning xizmati cheksizdir. Allohning elchilari bo`lgan payg`ambarlarni onalar dunyoga keltirgan, o`stirib ulg`aytirgandir. Shu sababdan payg`ambarlar tarixiga bag`ishlangan asarlarda ham onalar, xususan, payg`ambarlarning onalari obrazi alohida e'tiborga molikdir. Bu ayollar oddiy ayollar emas, Allohning eng sevikli bandalarini o`stirgan, tarbiya bergan, yelkalaridagi buyuk vazifani ado etishlarida ko`makdosh bo`lgan ayollardir. Nosiruddin Rabg'uziy qalamiga mansub "Qisasi Rabg'uziy" asarida ham onalarga, ayollarga bog'liq o'rinlar atroflicha ochib berilgan va ko'rsatilgan.

**Kalit so`zlar:** ona, qissa, payg`ambar, Havvo, Hojar, Maryam

Аннотация: Мать — это символ, воплощающий жизнедающую сущность женского начала и глубокие смыслы, связанные с внутренним миром человека, его памятью и эмоциями. Заслуги матери в рождении и воспитании ребенка до зрелого возраста безграничны. Именно матери родили пророков, посланников Аллаха, и воспитывали их до достижения ими зрелого возраста. По этой причине в трудах, посвященных истории пророков, матерям — особенно матерям пророков — уделяется особое внимание. Эти женщины не были обычными женщинами; именно они воспитали и взрастили самых любимых слуг Аллаха, помогая им в выполнении великого

долга, лежащего на их плечах. В труде «Кисаси Рабгузи», приписываемом Насируддину Рабгузи, роли, связанные с матерями и женщинами, также подробно раскрыты и представлены.

Ключевые слова: мать, история, пророк, Ева, Хаджар, Мариам

Annotation: Mother is a symbol embodying the life-giving essence of womanhood and the profound meanings associated with a person's inner world, memory and emotions. A mother's service in giving birth and raising a child to adulthood is boundless. It was mothers who gave birth to the prophets, God's messengers, and nurtured them until they came of age. For this reason, in works devoted to the history of the prophets, mothers—particularly the mothers of the prophets—are accorded special attention. These women are no ordinary women; they are the women who nurtured and raised Allah's most beloved servants, supported them in fulfilling the great duty upon their shoulders. In the work "Qisasi Rabg'uziy" by Nasiruddin Rabg'uziy, the roles associated with mothers and women are also extensively elaborated and demonstrated.

Keywords: mother, story, prophet, Eve, Hajar, Mary

Islom dinida onalar eng muhtaram va hurmatga sazovor inson sifatida qaraladi. Diniy manbalar hamda folklor an'analari uyg'unligida yaratilgan "Qisasi Rabg`uziy"asarida bashariyatning ilk onasi Hazrati Havvodan tortib, so`nngi payg`ambar Muhammad sollohu alayhi vassalamning onalari Amina binti Vahb haqida hikoyatlar beriladi. Lekin har bir ona haqida ma'lumotlar bir xil munosabatda berilmagan. Ayrim onalar haqida batafsil hikoya qilinsa (Iso alayhissalom onasi Maryam, Ismoil alayhissalom onasi Hojar, Muhammad sollohu alayhi vassalamning onalari Amina binti Vahb), ayrimlari bilan bog`liq qisqacha hikoyatlar (Ya'qub alayhissalom onasi Ruq'a, Sulaymon alayhissalom onasi

Bitshoni') keltiriladi. Shuningdek ba'zilarining faqat ismi keltirilgan (Nuh alayhissalom onasi Shamxo bintu Anush,Yusuf alayhissalomning onasi Rahil), ayrimlarini hatto ismlari ham berilmagan.(Solih alayhissalomning onasi, Ibrohim alayhissalomning onasi, Yunus alayhissalomning onasi) Chunki payg`ambarlar tarixi haqidagi asarlar oddiy bir xronologik tartibda berilgan tarixiy voqealar emas, balki har bir qissa axloqiy ta'lim berish maqsadida yaratilgan asarlardir. Undagi har bir obraz muallif ijodiy maqsadi uchun xizmat qiladi. Shu sababdan uning asarning o`rni undagi axloqiy, tarbiyaviy, ramziy xususiyatlar bilan belgilanadi. Mazkur maqolada asarda eng ko`p tilga olingan onalar obraziga murojaat qildik, zero bu ayollar siymosining badiiy talqinlarida ularning cheksiz fazilatlari asosida m`lum bir axloqiy jihatlari tarannum etilgan.

Hazrati Havvo. Turli davrlarda yaratilgan ilohiy va tarixiy manbalarda insoniyatning ilk onasi, shayton vasvasasiga uchib taqiqlangan mevani yeyishi, jannatdan insoniyatning quvilishi sababchisi, farzand dog`ini chekkan ilk ayol sifatida ta'riflanadi. Asarda ham bu jihatlar batafsil beriladi. Bu obraz sabr va tavba namunasi sifatida talqin qilinadi. Zero Havvo boshiga kelgan har bir sinovlarga sabr qildi, Allohga isyon qilmasdan faqat tavba va iltijoda bo`ldi. Alloh uning har bir azobidagi duolarini natijasiz qoldirmadi. Diniy manbalarga ko`ra Odam va Havvo jannatdan chiqarilgach, Odam a.s. Hindistonda Seylon oroliga, Havvo esa Jiddaya tushirildilar. Ular 200 yil (ba'zi manbalarda 130 yil)yig`lab, Allohga tavba qiladilar. Shundan so`ng ular Arofat to`gida uchrashdilar. So`ng birlikda yashab, farzandlar dunyoga keltirdilar. Shu o`rinda Hobil va Qobil qissasi beriladi. Bu qissa aka-ukaning o`rtasidagi oxiri o`lim bilan tugagan hasad, fitna haqidadir. Nobakor o`g`il qobil tomonidan iymonli o`g`li Hobilning o`ldirilishi Havvo uvhun og`ir sinov bo`ldi. Bir kunda ikki o`g`lidan ayrilgan ona cheksiz

azobda qoldi. *"Havvo onamiz boshidan kechirganlaridan tushunishimiz kerak bo`lgan sabr ikki mavzudadir: birinchisi: farzandlarning o`zaro dushmanligi, ikkinchisi: farzand dog`i"* [5; 46-b.] "Qisasi Rabg`uziy"da Odam bilan Havvo bu g`amdan uzoq yig`ladilar va motam tuttilar deb keltiriladi. Ularning uzoq yillik Hobilning firoqidagi iztiroblaridan so`ng Shis alayhissalom tug`ildi. "Qisasi Rabg`uziy"da bu voqea haqida shunday deyiladi: *"Qobilda kezin yuz o`tuz yil kechdi, Shis tug`urdi. Shis sarboniy tilincha "hibatulloh" temak bo`lur, ya'ni Tengri atosi. "Hobilni oldim ersa aning o`rning`a Shisni berdim.", tedi."*[1:40-b.] Shu tarzda Alloh ularga hadya sifatida Shis alayhissalomni beradi va ularning g`amlari biroz yengillashadi.

Hojar. Ibrohim alayhissalomning ayoli, Ismoil alayhissalomning onasi Hojar obrazi bu asarda alohida o`rin tutadi. Asarda Hojar ismi 40 marta, Ismoil alyhissalomning onasi deb 4 marta tilga olinadi va u bilan bog`liq voqealar batafsil hikoya qilinadi. Bu ayolning Misr malikasi ekanligi, bosqinchilar tomonidan otasi o`ldirilib yurti bosib olinishi, o`zini esa qul qilib olishlari haqida ma'lumotlar beriladi. Keyinchalik Ibrohim alayhissalomning rafiqasi Soraga tuhfa qilinishi, sora esa uni Ibrohim alayhissalomga hadya qilishi sababli payg`ambar xonadoni a'zosiga aylanishi voqealari asarda yorqin tasvirlanadi. Hojarning Ismoil alayhissalomga homilador bo`lganidan so`ng Sora qalbidagi hasad yuzidan ko`plab azoblarga duch keladi. Sora tomonidan unga turli tazyiqlar, jismoniy azoblar beriladi. Ammo u bularning barchasiga sabr qilardi. Lekin Soraning qattiq qistovi va Allohning amri bilan Ibrohim alayhissalom uni kimsasiz biyobonga eltib tashlaydi. Ya'ni Hojar bu vaqtda Ismoil alayhissalomga homilador edi va hali ko'zi yorimagan edi. *"Ibrohim Hojarni qo'zub yondi. Bir ancha ozuq, ichku suv qo'zub ketdi. Qach kunda kezin Hojar o'g'ul topdi, oy, kundin ko'rklukrak. Mustafoning*

nuri elninda". [1;104-b.] Hojar va o'g'li katta cho'l-biyobonda yolg'iz qoldilar. Bir necha kun davomida Hojar o'zi bilan olib kelgan suvi va oziq-ovqatlari bilan kun kechirdi. Ammo biroz muddat ichida ular tugadi. Hojarning qo'lida bolasi ochlik va tashnalikdan chinqirab yig'lar, ona esa bu holatda nima qilishini bilmay qoldi. Rabg'uziy bu mo'jiza sodir bo'lish jarayonini juda jonli va mufassal tasvirlaydi.[1; 104-b.] Chunki shu joyda Hojardagi onalik va Allohga bo`lgan umidvorlik tuyg`ulari o`zining eng yuqori cho`qqisini namoyon etgan. Hojardagi ana shu fazilat sababidan Alloh o`z mo`jizasini ko`rsatadi va cho`lning o`rtasidan Ismoil alayhissalom oyog`I ostidan Zam zam suvini chiqaradi. Hojar va o`gli shu yerda yashab qoladilar. **"***Ismoil alayhissalomning onasi bibi Hojar orqali ifodalangan ona mehr-muhabbati va sadoqati nafaqat oilaviy munosabatlar darajasida, balki ilohiy sadoqat va tavakkal timsoli sifatida ko'rsatiladi.*" [3; 28-b.] Darhaqiqat, Hojar timsolida hayotini farzandi uchun bag'ishlagan, taqdirga tan bergan, sukut va iffatni asosiy fazilat deb biladigan obraz sifatida ko'rsatiladi.

Hazrati Maryam. Qur'onda nomi zikr etilgan yagona ayol, ilohiy qudrat bilan otasiz ulug` bir payg`ambarni dunyoga keltirib, uni tarbiya qilgan ona bu — Hazrati Maryamdir. Bu siymo barcha dinlarda ulug`lanadi. Xususan, *"xristian teologiyasida ona obrazi, asosan, Maryam obrazi asosida gavdalanadi. Bu obraz orqali xristianlik dinida ayollik va onalikning transsendental mohiyati, insoniyatning ilohiy irodasi bilan uyg'unligi ta'kidlanadi. Maryamning muqaddasligi va uning ona sifatidagi roli xristian falsafasida insonning ma'naviy tiklanishi ramzi sifatida e'tirof etiladi."*[3; 21-b.] "Qisasi Rabg`uziy" asarida ham bu obrazga alohida e'tibor qaratiladi. Uning tug`ilishidan tortib, ibodatxonaga xizmat qilish uchun qabul qilinishi (garchi qiz bola bo`lsa-da) , Zakariyo alayhissalom vasiyligida voyaga yetishi, ilohiy mo`jiza bilan iffatli holida

homilador bo'lishi, Iso alayhissalomni dunyoga keltirishi, so`ngra qabilasiga chaqaloqni ko`tarib kirganida sukut saqlagani, bu paytda esa Iso alayhissalom go`dak holida tilga kirib o`zining payg`ambar ekanligini aytib, onasini nomini oqlagani haqidagi voqealar jonli tasvirlanadi. Ba'zi o`rinlarda muallif hodisaga nisbatan o`zining shaxsiy mulohazalarini ham keltirib o`tadi. Asarda Maryam ismi 46 marta, Isoning onasi nomi esa 15 marta zikr qilinadi. U atrofdagilarning fisq-u fasodlaridan qochib,tog`larga chiqib ketadilar. *"Qachon Iso ulug`aydi ersa bir kun onasig`a aydi: "Mavlo taolo bizni ne uchun yaratti?" Onasi aydi: "Xidmat, toat uchun yaratdi" Iso aydi: "Qo`pg`il bu xaloyiqlar orasindin chiqaling. Men bular orasinda xidmat qilumasman." Onasining ilkin olib tog`ga chiqdilar. Savmaa qilib toat ibodatg`a mashg`ul bo`ldilar. Kunduz ro`za tuttilar."*[2; 84-b.] Inson uchun ilk tarbiyachi bu onadir. Dunyoni farzandlar onalar tilidan anglaydi. Iso alayhissalom ham onasiga savol berib, aslida yaratilishidan maqsad nima ekanligini bilishga urinadi. Taqvodor ona bu savolga Allohga xizmat (*iz. Xidmat — xizmat, yumush, ish* [4; 390-b.]) qilish va toat-ibodatda bo`lish uchun deb jvob beradi. Bu dunyodagi asl missiyasini anglagan bo`lajak payg`ambar onasi bilan birgalikda odamlardan yiroqlarga ketadilar. U yerda ibodatxona ( *iz. Savmaa — xristianlar ibodatxonasi; monastir)* [2; 229-b.] qilib, toat-ibodat bilan kunduzlari ro`za bilan kun kechiradilar. Maryam asarda iffat, taqvo sohibasi hamda Iso alayhissalom tarbiyachisi, doimiy hamrohi sifatida ko`rsatiladi.

Xulosa qilib aytganda, "Qisasi Rabg`uziy" asarida ona obrazi ko'proq sabr-toqat, qurbonlik, vafo, ibrat va taqvo ramzi sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa bu fazilatlar payg`ambarlarning onalari siyratida yorqin ochib beriladi. Chunki ulardagi bu jihatlar faqat bir kishiga emas, butun insoniyatning axloqiy-ma'naviy kamoloti uchun o`rnak sifatida ko`rsatiladi. Bunday tasvirlarda ular nafaqat ona,

balki Allohga itoatkor hamda sadoqatli, ilohiy tavakkul va taslimiyat egalari sifatida namoyon bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rabg'uzuy, Nosiruddin Burhonuddin.Qisasi Rabg'uziy –.Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMU, 2022. – B.104.
2. Рабғузий Носируддин Бурҳлнуддин. Қисаси Рабғузий. Иккинчи китоб. – Т.: Ёзувчи, 1991, 84-b.
3. Xudoymurodova Xuriyat. Istiqlol davri nasrida ona obrazi. Fil. Fan. Dok. (DSc) dissertatsiya. Qarshi – 2025,21-28-b.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati. 4 tomlik. III t. Toshkent: "Fan", — 1984, 390-b.
5. Murat Tosun. Alim yetishtiren anneler. Istanbul: Mercan kitap, 2020, 46-b.
6. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
7. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.
8. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
9. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
10. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING BOBLARI BO'YICHA TAVSIFI. *Shokh Articles Library*, *1*(2).

11. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.
12. .Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION.* (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
13. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.